

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES	20
Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	30
Nosirova Kamola Alimovna	



O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Nosirova Kamola Alimovna

TDIU, Innovatsion menejment kafedrası, i.f.n., katta o'qituvchi

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va kambag'allikni qisqartirish sharoitida ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini institutsional hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida kapital transformatsiyasining besh bosqichli evolyutsion modeli tizimlashtirilib, an'anaviy moliyaviy instrumentlar bilan bir qatorda ESG tamoyillari va impakt-investitsiyalardan foydalanish istiqbollari asoslab berilgan. O'zbekiston amaliyotida ijtimoiy korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda qo'llanilayotgan ko'p bo'g'inli fiskal hamda moliyaviy-kredit mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy korxonalarining fiskal barqarorligini ta'minlash hamda moliya bozorida suveren va korporativ "Ijtimoiy obligatsiyalar" (Social Bonds)ni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, impakt-investitsiyalar, ESG mezonlari, subsidiya, moliyaviy leverij, ijtimoiy obligatsiyalar, fiskal barqarorlik, kambag'allikni qisqartirish.

Аннотация. Исследованы вопросы совершенствования системы институциональной и финансовой поддержки субъектов социального предпринимательства в условиях модернизации национальной экономики и сокращения уровня бедности. В ходе исследования систематизирована пятиэтапная эволюционная модель трансформации капитала, обоснованы перспективы применения принципов ESG и импакт-инвестирования наряду с традиционными финансовыми инструментами. Проведён анализ многоуровневых фискальных и финансово-кредитных механизмов, используемых в практике Узбекистана для стимулирования деятельности социальных предприятий. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации по обеспечению фискальной устойчивости социальных предприятий, а также по внедрению суверенных и корпоративных «социальных облигаций» (Social Bonds) на финансовом рынке страны.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, импакт-инвестиции, критерии ESG, субсидии, финансовый леверидж, социальные облигации, фискальная устойчивость, сокращение бедности.

Abstract. Issues related to improving the institutional and financial support system for social entrepreneurship entities in the context of national economic modernization and poverty reduction are examined. The study systematizes a five-stage evolutionary model of capital transformation and substantiates the prospects of applying ESG principles and impact investing alongside traditional financial instruments. Multi-level fiscal, financial, and credit mechanisms used in Uzbekistan to stimulate the development of social enterprises are analyzed. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are proposed to ensure the fiscal sustainability of social enterprises and to introduce sovereign and corporate Social Bonds into the country's financial market.

Keywords: social entrepreneurship, impact investing, ESG criteria, subsidies, financial leverage, social bonds, fiscal sustainability, poverty reduction.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash faqatgina an'anaviy bozor dastaklari yoki sof fiskal mexanizmlarga tayanib qolmay, balki jamiyatdagi o'tkir ijtimoiy va ekologik buzilishlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan innovatsion institutsional tuzilmalarni taqozo etmoqda. Bunday transformatsiya jarayonlarida tijorat sektorining moliyaviy barqarorligi va notijorat sohasining ijtimoiy missiyasini o'zida uyg'unlashtirgan ijtimoiy tadbirkorlik instituti rivojlangan mamlakatlar moliya tizimida muhim o'rin tutmoqda. Ijtimoiy korxonalar aholining ehtiyojmand qatlamlarining bandligini ta'minlash, inklyuziv muhit yaratish va mahalliy darajadagi ijtimoiy muammolarni bozor tamoyillari asosida hal etish orqali davlat budjetiga tushadigan fiskal yukni sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatiga ega.



Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar va «O'zbekiston – 2030» strategiyasining bosh maqsadlaridan biri aholi farovonligini yuksaltirish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan. Mazkur strategik vazifalarni ijro etishda davlat tomonidan beriladigan to'g'ridan to'g'ri subsidiyalar va ijtimoiy transfertlar tizimini tadbirkorlik asosidagi o'zini o'zi moliyalashtiruvchi modellar bilan almashtirish davr talabidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev kambag'allikni qisqartirish va aholini tadbirkorlikka jalb etish borasidagi davlat siyosatining moliyaviy-iqtisodiy mazmunini asoslab berar ekan, quyidagi strategik fikrlarni alohida ta'kidlagan edi: «Kambag'allikni qisqartirish — bu pul tarqatish, nafaqa to'lash degani emas. Buning bosh omili — aholini kasb-hunarga o'qitish, ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikka imkoniyat berishdir. Har bir ajratilayotgan fiskal resurs, har bir subsidiya jamiyatda yangi iqtisodiy faollikni uyg'otishi, ijtimoiy mas'uliyatli biznesning shakllanishiga xizmat qilishi shart»¹.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu ustuvor vazifa milliy iqtisodiyotda ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini tizimli tadqiq etish zaruratini belgilaydi, ijtimoiy startaplar uchun an'anaviy fiskal dastaklar (subsidiya, grant va soliq imtiyozlari) hamda innovatsion moliya bozori vositalari (ESG tamoyillari va ijtimoiy impakt-investitsiyalar) o'rtasidagi oqilona nisbatlarni ilmiy asoslab berish maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bangladeshlik iqtisodchi olim Muhammad Yunus o'zining fundamental asarida ijtimoiy tadbirkorlikning moliyaviy jihatdan o'zini o'zi qoplash tamoyilini xayriyadan ajratib ko'rsatadi. Uning ta'riflashicha, «Ijtimoiy biznes — bu odatdagi xayriya tashkiloti emas. Bu o'z xarajatlarini to'liq qoplaydigan va bozor qonuniyatlari asosida faoliyat yuritadigan korxonadir. Uning an'anaviy biznesdan yagona farqi — olingan sof foyda investorlar o'rtasida dividend sifatida taqsimlanmaydi, balki korxonaning ijtimoiy missiyasini kengaytirish uchun qayta reinvestitsiya qilinadi. Sadaqa sifatida berilgan bir dollar bir martagina xizmat qiladi va tugaydi, ijtimoiy biznesga kiritilgan bir dollar esa aylanib, tinimsiz ijtimoiy naf keltiraveradi»².

Oksford universiteti professori, ijtimoiy tadbirkorlik tadqiqotchisi Aleks Nikolls ijtimoiy tadbirkorlikni tizimli ijtimoiy o'zgarishlar yaratish dastagi sifatida ta'riflaydi: «Ijtimoiy tadbirkorlik — bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun bozorga yo'naltirilgan innovatsion usullardan foydalanish jarayonidir. Bunda muvaffaqiyat faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki jamiyatda yaratilgan tizimli ijtimoiy qiymat va transformatsiya darajasi bilan o'lchanadi»³.

Yevropa EMES ijtimoiy tadbirkorlik tadqiqotchilari tarmog'ining asoschilari Karlo Borzaga va Jak Defurnilar ijtimoiy korxonalarining ko'p bo'g'inli tabiati va manfaatdor tomonlar bilan aloqasini quyidagicha ifodalaydi: «Ijtimoiy korxonalar — bu kapital egalari manfaatlariga emas, balki jamiyat va mahalliy hamjamiyatlar farovonligiga xizmat qiluvchi tuzilmadir. Uning iqtisodiy tabiati tadbirkorlik tavakkalchiligi va faoliyatning uzluksizligiga asoslansa, ijtimoiy tabiati qarorlar qabul qilishda demokratik jarayonni hamda foyda taqsimotining cheklanganligini nazarda tutadi»⁴.

Professor A.V. Vahobov va A.S. Malikdinovlar zamonaviy moliya tizimida ijtimoiy loyihalarning investitsiyaviy jozibadorligini ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillari orqali asoslab beradilar: «Zamonaviy global moliya bozorida kapital oqimi faqatgina yuqori rentabellik ketidan quvmay qo'ydi. Bugungi kunda investorlar uchun loyihalarning ESG mezonlariga mosligi va ta'sir (impakt) investitsiyalari sifatida ijtimoiy transformatsiyaga qo'shayotgan hissasi ularning moliyaviy jozibadorligini belgilovchi asosiy strategik indikatorga aylanmoqda»⁵.

N.E. Jiyanova (milliy iqtisodchi olim) ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasida ijtimoiy tadbirkorlik modellarining moliyaviy ahamiyatini alohida qayd etadi: «Oliy ta'lim muassasalari, ilm-fan va real sektor korxonalari o'rtasidagi simbioz shaklidagi ijtimoiy tadbirkorlik modellari (masalan, inklyuziv startaplar, talabalarning ijtimoiy innovatsion klublari) nafaqat inson kapitalini rivojlantiradi, balki davlat budjetiga ortiqcha yuk tushirmasdan, innovatsiyalarni tijoratlashtirish orqali oliy ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi»⁶.

1 Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: «Tasvir», 2022. – Б.245-246

2 Юнус М. Создавая мир без бедности: Социальный бизнес и будущее капитализма. / Мухаммад Юнус. — М.: Альпина Паблишер, 2010. –С.45

3 Nicholls A. Social Entrepreneurship: New Models of Sustainable Social Change. – Oxford University Press, 2008. -P.112.

4 Borzaga C., Defourny J. The Emergence of Social Enterprise. // *International Journal of Social Economics*, Vol. 28, No. 7, 2021. – pp. 72–81.

5 Ваҳобов А.В., Малиқдинов А.С. Халқаро молиявий муносабатларда ESG тамойиллари ва яшил молиялаштиришнинг ривожланиш тенденциялари. // «Молия» журнали, Тошкент, 2023. -Б.14

6 Жиянова Н.Э. Олий таълим муассасалари ва ишлаб чиқариш интеграциясини молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш. Монография. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2022. – Б.92



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, vazirlik va idoralarning rasmiy statistik ma'lumotlari, xalqaro moliya institutlari hisobotlari, ilmiy maqolalar hamda ijtimoiy tadbirkorlik va investitsiyalar sohasiga oid monografiyalarni o'rganish asosida yig'ildi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish amaliyoti, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va investitsiyaviy jozibadorlik omillariga doir ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, guruhlash, umumlashtirish hamda iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, baholandi. Xalqaro va milliy tajriba ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning samarali instrumentlari aniqlandi. Tahlil natijalari asosida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonaning ijtimoiy mas'uliyatli (ijtimoiy korxonalar) deb tan olinishi hamda davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari (imtiyoz va subsidiyalar)dan foydalanish huquqiga ega bo'lishi uchun u quyidagi mezonlardan kamida bittasiga javob berishi kerak⁷:

ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni ish bilan ta'minlash. Qonunchilikda belgilangan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan toifalari (masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar, chin yetimlar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganlar va b.) uchun ish o'rinlari yaratish. Bunda korxonadagi xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini ushbu toifadagi shaxslar tashkil etishi va ularning ish haqi fondi umumiy ish haqi fondining kamida 25 foizidan kam bo'lmashligi shart.

ijtimoiy toifalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish bilan shug'ullanish. Bunda korxonaning ushbu faoliyatdan olgan daromad ulushi umumiy tushumning kamida 50 foizini tashkil etishi hamda olingan sof foydaning kamida 50 foizi mazkur korxonani ijtimoiy maqsadlar yo'nalishida qayta investitsiyalashga (rivojlantirishga) yo'naltirilishi kerak.

maxsus tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi fuqarolar, ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ularning hayotiy cheklavlarini yengib o'tish yoki kompensatsiya qilishga yordam beradigan, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida yashashini ta'minlaydigan maxsus mahsulotlarni (protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya vositalari va b.) ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish. Bunda korxonalar daromadining kamida 50 foizi ushbu faoliyatdan shakllanishi va sof foydaning kamida 50 foizi korxonaning o'zini rivojlantirishga qayta yo'naltirilishi shart.

ijtimoiy ahamiyatga molik sohalarda faoliyat yuritish. Jamiyat uchun foydali bo'lgan va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyat turlari (xususiy maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, yashil iqtisodiyot va ekologik loyihalar) bilan shug'ullanish. Bunda korxonaning ushbu ijtimoiy yo'nalishdagi faoliyatidan olgan daromad ulushi jami daromadning kamida 50 foizidan kam bo'lmashligi va olingan sof foydaning kamida 50 foizi ijtimoiy faoliyat doirasida korxonani yanada kengaytirishga sarflanishi kerak.

O'zbekiston amaliyotida birinchi mezon (nogironligi bo'lgan shaxslar bandligi) uchun alohida Soliq kodeksi imtiyozlari bor. Agar korxonada nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etsa, ular foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlardan ozod etiladi yoki pasaytirilgan stavkalar qo'llaniladi.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirkorlik — bu qonun bilan belgilangan sohalarda, muayyan majburiy shartlarga rioya qilingan holda amalga oshiriladigan o'ziga xos biznes faoliyati shaklidir.

Binobarin, ijtimoiy tadbirkor — bu faoliyati faqatgina an'anaviy tijorat muvaffaqiyati va sof foyda olishga emas, balki aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga hamda jamiyat uchun eng muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan maxsus biznes modelini amalga oshiruvchi kichik yoki o'rta tadbirkorlik subyektidir.

Biroq ijtimoiy tadbirkorlik doirasida ko'zlanadigan maqsadlar va amalga oshiriladigan vazifalar mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-ommaviy xususiyatga ega bo'lib, ularning aksariyati O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasida mustahkamlangan jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadlariga hamohangdir. Biznes sohasi va notijorat sektori o'rtasidagi ushbu tizimli chegaralanish va ularni muvofiqlashtirish masalasi hali-hanuz huquqiy tadqiqotlarni talab etadi.

Milliy qonunchilikda O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi doirasida davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash choralari va soliq imtiyozlariga ishonishi mumkin bo'lgan ijtimoiy korxonalarining faoliyat

7 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони. // «Халқ сўзи» газетаси. — 2023 й., 12 сентябрь, № 192 (8535). — 1–3-б. (Стратегиянинг 2-ўқналиши: аҳоли фаровонлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқарттиришда ижтимоий тadbirkorlikни ривожлантириш мақсадлари кўрсатилган).



sohalari aniq chegaralab berilgan.

Xususan, o'zbekistonlik ijtimoiy tadbirkorlarning ustuvor faoliyat sohalariga quyidagi ijtimoiy yo'naltirilgan xizmatlarni ko'rsatish va mahsulotlarni ishlab chiqarish kiradi:

- ijtimoiy-maishiy xizmatlar. Yolg'iz keksalar, o'zgarlar parvarishiga muhtoj shaxslar va nogironligi bo'lgan shaxslarga uyda yoki maxsus maskanlarda kundalik hayotiy xizmatlar ko'rsatish;
- ijtimoiy-tibbiy xizmatlar. Jamiyat salomatligini saqlash maqsadida, ayniqsa, harakatlanish imkoniyati cheklangan bemorlar va qariyalar uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, reabilitatsiya markazlarini tashkil etish;
- ijtimoiy-ruhiy yordam. Muayyan ruhiy qiyinchiliklarga duch kelgan yoki ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj shaxslarga (jumladan, oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga) ruhiy xizmat ko'rsatish;
- ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari, chin yetimlar, shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan (inklyuziv) bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- ijtimoiy-mehnat va kasbga yo'naltirish. Imkoniyati cheklangan shaxslar va band bo'lmagan xotin-qizlarni kasb-hunarga o'rgatish, ularning ijtimoiy moslashuvi va mehnat bozorida o'z o'rnini topishiga ko'maklashish;
- maxsus texnik vositalar ishlab chiqarish. Tibbiy asbob-uskunalar va texnik vositalar, protez-ortopediya buyumlari, eshitish moslamalari hamda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus dasturiy ta'minotlar (masalan, ko'zi ojizlar uchun ilovalar) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, bolalar tarbiyasi va rivojlanishiga qaratilgan ruhiy-pedagogik xizmatlar ko'rsatish;
- inklyuziv dam olish tizimi. Jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun sog'lomlashtirish hamda oromgoh maskanlarini tashkil etish;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (bog'chalar) va xususiy maktablar sohasida, ayniqsa, chekka hududlarda ijtimoiy tariflar bo'yicha xizmat ko'rsatish;
- ijtimoiy soha xodimlari malakasini oshirish. Ijtimoiy yo'naltirilgan nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlari, ijtimoiy xodimlar va ko'ngillilarni (volontyorlarni) o'qitish hamda qayta tayyorlash;
- madaniy-ma'rifiy faoliyat. Aholining madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xususiy muzeylar, galereyalar, kutubxonalar va xalq hunarmandchiligi markazlarini tashkil etish;
- milliy meros va qadriyatlarni saqlash. O'zbekistonning ko'p millatli xalqi tarixiy-madaniy merosini, urf-odatlarini saqlash va millatlararo totuvlikni kengaytirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;
- ilmiy va ma'rifiy nashriyot. Ta'lim, madaniyat, fan va bolalar adabiyotiga oid davriy nashrlar va kitoblarni chop etish.

O'zbekistondagi ijtimoiy tadbirkorlik fenomeni haqida to'liq va aniq tasavvur hosil qilish uchun mahalliy amaliyotdagi bir nechta muvaffaqiyatli misollarni (keyslarni) ko'rib chiqishni tavsiya etamiz. Darhaqiqat, o'zbekistonlik ishbilarmonlar xalqaro tajribalarni milliy mentalitetga moslashtirgan holda o'z bizneslarini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari farovonligini oshirishga qaratmoqdalar. Bu bilan ular bir vaqtning o'zida ikkita strategik vazifani hal etmoqdalar: jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatni bajarish va insonparvarlik g'oyalari atrofida o'z biznesiga xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni, shuningdek, grant mablag'larini jalb qilish.

Inklyuziv ta'lim va bandlik sohasida Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan, eshitish va gapirishda nuqsoni bo'lgan hamda daun sindromi bor yoshlarni ish bilan ta'minlagan inklyuziv kafe va kasb-hunar ustaxonalari loyihasini misol qilib keltirish mumkin (masalan, "Imkon" yoki shu kabi ijtimoiy novvoyxonalar).

Ijtimoiy tadbirkorlikning yana bir yorqin namunasi hududlardagi toza ichimlik suvi loyihalari bo'lib, Orolbo'yi mintaqasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati) hamda Qashqadaryoning chekka qishloqlarida mahalliy tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan kichik suv tozalash inshootlaridir. Ijtimoiy tadbirkorlar tomonidan o'rnatilgan maxsus filtrlash uskunalari orqali mahalliy aholiga tizimli ravishda, bozor bahosidan bir necha barobar arzon narxda toza suv yetkazib berish yo'lga qo'yildi. Ushbu loyihalar "Eng yaxshi ijtimoiy startap" kabi respublika tanlovlarida g'olib chiqib, davlat subsidiyalari va maqsadli grantlari hisobiga o'z texnik quvvatini yanada kengaytirmoqda.

Milliy hunarmandchilik va ijtimoiy sexlar O'zbekistonning barcha hududlarida (ayniqsa, Farg'ona vodiysi, Buxoro va Samarqandda) faol rivojlanayotgan milliy suvenirlar, ipak gilamlar va kulolchilik ustaxonalari shaklida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu markazlarda asosiy ishchi kuchi sifatida tug'ruq ta'limdagi kam ta'minlangan ayollar, "Ayollar daftari"da turuvchi xotin-qizlar va uyda o'tirgan nogironligi bor shaxslar mehnat qiladi. Tadbirkorlar ularga uy sharoitida zarur xomashyoni yetkazib berib, tayyor mahsulotlarni (masalan, milliy qo'g'irchoqlar, kashtachilik buyumlari) o'zlari sotib oladilar va eksportga yo'naltiradilar. Bu model zaif qatlamga uydin chiqmagan holda barqaror daromad topish imkoniyatini taqdim etmoqda.

O'zbekiston amaliyotida bunday ijtimoiy loyihalarning iqtisodiy jihatdan yashovchanligi davlat tomonidan kafolatlanmoqda. Masalan, tarkibida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etgan ijtimoiy

korxonalar uchun foyda solig'i, mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha nol (0) stavkali imtiyozlar qo'llanilishi ushbu sohaning nafaqat ijtimoiy mas'uliyatini, balki moliyaviy barqarorligini ham ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda⁸.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti uchun quyidagi ijtimoiy biznes modellari eng istiqbolli va jozibador hisoblanadi:

- ijtimoiy mikromoliyalashtirish. Aholining ehtiyojmand qatlamlari yoki o'zining ilk startapini boshlayotgan yoshlar uchun imtiyozli shartlardagi va minimal foizli mikroreditlar yoki mikroqarz tizimlarini yo'lga qo'yish;
- inklyuziv sport va sog'lomlashtirish maskanlari. Jismoniy va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan shaxslar, shuningdek, pensionerlar uchun maxsus reabilitatsiya uskunalari bilan jihozlangan va imtiyozli (subsidiyalangan) tariflarga ega fitnes klublari hamda sport zallari⁹;
- inklyuziv ta'lim kurslari. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan hamda imkoniyati cheklangan mutaxassislar (masalan, ko'zi ojiz yoki eshitishda nuqsoni bor pedagoglar) tomonidan dars o'tiladigan xorijiy tillar va raqamli texnologiyalar (IT) kurslari;
- ijtimoiy o'quv markazlari (repetitorlik). Ota-onalari individual darslar yoki qimmatbaho o'quv markazlari uchun pul to'lashga qodir bo'lmagan, "Temir daftar" va "Yoshlar daftariga" kiritilgan oilalar farzandlari uchun tashkil etiladigan hamyonbop yoki bepul ta'lim klublari;
- "Ijtimoiy do'konlar" tarmog'i. Kam ta'minlangan fuqarolar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatamlar uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat hamda iste'mol tovarlarini minimal ustama narxlar (tannarxiga yaqin qiymatda) bilan sotishga ixtisoslashgan savdo nuqtalari;
- eko-ijtimoiy maishiy xizmatlar. Narxlar qat'iy arzonlashtirilgan va ijtimoiy kartalar orqali xizmat ko'rsatiladigan sataroshxonalar, kimyoviy tozalash va poyabzal ta'mirlash ustaxonalari;
- ijtimoiy transport xizmati. Ko'p bolali oilalar, keksa yoshdagi fuqarolar va nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy, sport, ta'lim va tibbiyot muassasalariga xavfsiz harakatlanishini ta'minlovchi, maxsus panduslar bilan jihozlangan ijtimoiy taksi yoki avtobuslar qatnovi.

Zamonaviy bosqichda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng samarali va keng tarqalgan chora-tadbirlari tizimini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar. Ijtimoiy korxonalarni zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash va ulardan foydalanishda (energiya resurslari, suv va boshqa kommunal xizmatlar uchun) imtiyozli tariflarni joriy etish, shuningdek, ularni kichik sanoat zonalarida ustuvor ravishda joylashtirish;

To'g'ridan to'g'ri moliyaviy va grant yordamlari. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi jamg'armalar, Yoshlar ishlari agentligi hamda mahalliy hokimliklar qoshidagi "Saxovat va ko'mak" jamg'armalari hisobidan ijtimoiy startaplar uchun qaytarilmaydigan maqsadli grantlar, subsidiyalar va imtiyozli kredit liniyalarini ajratish;

Mulkiy qo'llab-quvvatlash choralari. Davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan bino va inshootlarni, mahallalardagi foydalanilmayotgan obyektlarni ijtimoiy tadbirkorlarga uzoq muddatli ijaraga berishda minimal (imtiyozli) stavkalarini qo'llash yoki muayyan ijtimoiy majburiyatlar evaziga vaqtinchalik bepul foydalanish huquqi bilan o'tkazish;

Axborot-marketing ko'magi va bepul reklama. Ijtimoiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning ijtimoiy ahamiyatini keng targ'ib qilish maqsadida davlat OAVlari va tashqi reklama maydonlarida ularga bepul yoki imtiyozli shartlarda "ijtimoiy reklama" maqomini berish orqali ko'maklashish;

Konsalting, uslubiy va huquqiy yordam. Savdo-sanoat palatasi hamda tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari tomonidan ijtimoiy tadbirkorlarga biznes-rejalar tuzish, soliq imtiyozlaridan to'g'ri foydalanish, yuridik va buxgalteriya masalalari bo'yicha tizimli maslahatlar hamda uslubiy qo'llanmalar taqdim etish¹⁰;

Xalqaro hamkorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat. Ijtimoiy loyihalarga xorijiy donor tashkilotlar (BMT Taraqqiyot Dasturi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va b.) grantlarini jalb qilish, ijtimoiy korxonalar mahsulotlarini xalqaro ko'rgazmalarga olib chiqish va xorijiy ijtimoiy investorlar (Impact Investors) bilan sheriklik aloqalarini

8 Ўзбекистон Республикасининг «Аҳоли бандлиги тўғрисида»ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2020 й., 43-сон. – 438-модда, 512–526-б. (Қонуннинг 24, 25 ва 26-моддаларида аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларини ишга жойлаштирганлик учун ижтимоий корхоналарга бериладиган давлат субсидияларининг ҳуқуқий асоси мустаҳкамланган).

9 Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами (ҚХТ). – Тошкент, 2013 й., 52-сонга илова. – 124-б. (Кодекснинг 70 ва 71-моддаларида маҳаллий бюджетлардан ижтимоий ва бандлик дастурларига, субсидияларга маблағ ажратиш тартиби белгиланган).

10 Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Аxborotномаси. – Тошкент, 2019 й., 12-сонга илова. – 480-б. (Кодекснинг 337 ва 427-моддаларида ногиронлиги бўлган шахслар меҳнатидан фойдаланувчи ижтимоий корхоналар учун фойда ва мол-мулк солиғи бўйича имтиёзлар кўрсатилган).



o'rnatishda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi darajasida ko'maklashish¹¹;

Kadrlar salohiyatini oshirish va inklyuziv ta'lim. Ijtimoiy korxonalarining rahbarlari va xodimlari (ayniqsa, imkoniyati cheklangan ishchilar) uchun zamonaviy menejment, marketing va raqamli texnologiyalar bo'yicha bepul malaka oshirish kurslari hamda kasbiy qayta tayyorlash tizimini tashkil etish;

Davlat xaridlariga preferensiyalar berish. Ijtimoiy ahamiyatga molik buyurtmalarni (masalan, inklyuziv maktablar uchun jihozlar, protez buyumlari va b.) joylashtirishda davlat xaridlari tizimida ijtimoiy korxonalariga qonunchilik doirasida ustuvorlik va kvotalar ajratish.

Xalqaro tajriba, xususan, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bir vaqtning o'zida ham respublika (markaziy), ham mintaqaviy (viloyatlar va Toshkent shahri), hamda mahalliy (tuman va shaharlar) darajalarda tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston sharoitida bunday ko'p bo'g'inli qo'llab-quvvatlash mexanizmi nafaqat davlat budget mablag'lari, balki nodavlat sektor — tijorat banklari, yirik sanoat korporatsiyalari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) tomonidan ham faol ijtimoiy sheriklik (ijara stavkalarini pasaytirish, qo'shma ijtimoiy loyihalar, kraudfanding va bepul marketing dastaklari) vositasida tashkil etilishi mumkin.

Investitsiya kiritishdan kutilayotgan sof iqtisodiy foyda (rentabellik) va jamiyat uchun yaratiladigan ijtimoiy ta'sir (multiplikativ samara) nisbatiga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning quyidagi transformatsiyalashgan ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mantiqan to'g'ri hisoblanadi:

An'anaviy (tijorat) investitsiyalar. Bular biznes faoliyatiga yo'naltiriladigan odatiy moliyaviy mablag'lar bo'lib, ularning bosh maqsadi — iqtisodiy foyda va maksimal rentabellik darajasiga erishishdir. Bunda moliyaviy chizma klassik ko'rinishga ega: kapital biznes loyihaga yo'naltiriladi va natijada sof dividend yoki nominal foyda shaklida qaytadi. Loyihaning ijtimoiy oqibatlari ustuvor ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Mas'uliyatli investitsiyalar (Responsible Investments — RI) — bu iqtisodiy mazmuniga ko'ra muntazam tijorat investitsiyalari hisoblansa-da, ammo kapitalni joylashtirishda mas'uliyatli moliyaviy xulq-atvor va umumiy axloqiy cheklovlar hisobga olinadi.

Ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar (Socially Responsible Investments — SRI). Ushbu moliyaviy vosita to'g'ridan to'g'ri loyihaning jamiyat va atrof-muhitga ko'rsatadigan ijobiy ijtimoiy ta'sirini (Social Impact) maqsadli baholashga asoslanadi. Ya'ni, investor kapitalni joylashtirishdan avval uning ijtimoiy qiymatini tahlil qiladi. Milliy nuqtai nazardan inson salomatligi va ekologiyaga zarar yetkazuvchi tamaki yoki alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga kapital yo'naltirish ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya hisoblanmaydi.

ESG-investitsiyalar (Environmental, Social, and Governance). Ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va yuqori korporativ boshqaruv standartlariga to'liq muvofiq keluvchi loyiha hamda tashkilotlarga kapital yo'naltirishni ko'zda tutadi. Milliy amaliyotda ESG-investitsiyalar nafaqat xususiy sektor, balki davlat tomonidan ham faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O'zbekiston moliya bozorida barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish uchun yashil va ijtimoiy suveren obligatsiyalarning chiqarilishi, tijorat banklari tomonidan loyihalarni kreditlashda ularning ekologik va ijtimoiy xavf-xatarlarini majburiy baholash tizimining (ESRM) joriy etilishi ushbu investitsiya turining institutsional asosi hisoblanadi.

Ta'sir investitsiyalari yoki impakt-investitsiyalash (Impact Investing). Moliyaviy daromad olish bilan bir qatorda, aniq o'lchanadigan va maqsadli ijtimoiy yoki ekologik multiplikativ samara (ta'sir)ga erishish uchun kompaniya va jamg'armalarga kapital kiritish amaliyotidir. Ijtimoiy tadbirkorlik nuqtai nazaridan ushbu vosita mahalliy ijtimoiy korxonalarining o'zaro sheriklik asosida bir-birini moliyalashtirishi yoki yirik venchur fondlari tomonidan ijtimoiy startaplarga sarmoya kiritilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunday o'zaro moliyaviy qo'llab-quvvatlash va "sinergiya samarasi" orqali bozorda nafaqat barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanadi, balki jamiyatdagi o'tkir ijtimoiy muammolar (bandlik, inklyuziv ta'lim, sog'liqni saqlash va kambag'allikni qisqartirish) bozor mexanizmlari yordamida samarali hal etiladi.

Bizning fikrimizcha, investitsiya kapitalining an'anaviy tijorat shaklidan ijtimoiy yo'naltirilgan (impakt) shakliga transformatsiyalashish xususiyatlari va ularning O'zbekiston amaliyotidagi real dastaklari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

11 Ўзбекистон Республикасининг «Ижтимоий шериклик тўғрисида»ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. – Тошкент, 2014 й., 9-сон. – 239-модда, 312–318-б. (Давлат органлари ва ижтимоий тadbirkorlik экотизими, хусусан ННТлар ўртасидаги грант ва субсидия муносабатларини тартибга солиди).

Investitsiya kapitalining an'anaviy tijorat shaklidan ijtimoiy yo'naltirilgan shakliga transformatsiyalashish xususiyatlari¹²

T/r	Investitsiya turi	Asosiy moliyaviy maqsadi	Ijtimoiy-ekologik mas'uliyat darajasi	Milliy iqtisodiyotdagi real dastagi
1.	An'anaviy investitsiyalar	Maksimal sof foyda va rentabellik	Hisobga olinmaydi (neytral)	Odatiy tijorat kreditlari, aksiyadorlik kapitali
2.	Mas'uliyatli investitsiyalar (RI)	Moliyaviy foyda + xavflarni kamaytirish	Minimal axloqiy cheklovlar va mehnat muhofazasi	Mehnat qonunchiligiga va xavfsizlikka rioya qiluvchi korxonalar kapitali
3.	Ijtimoiy mas'uliyatli sarmoyalar (SRI)	Moliyaviy daromad + ijtimoiy filtrlash	Zararli tarmoqlarni istisno qilish (negativ skrining)	Farmatsevtika, tibbiyot va «yashil ish o'rinlari» yaratuvchi loyihalarni moliyalash
4.	ESG-investitsiyalar	Barqaror moliyaviy daromad va tizimli transformatsiya	Yuqori (ekologiya, ijtimoiy muhit va korporativ boshqaruv uyg'unligi)	Suveren ijtimoiy obligatsiyalar (Social Bonds), banklardagi ESRM tizimi
5.	Ta'sir investitsiyalari (Impact Investing)	Moliyaviy daromad + aniq o'lchanadigan ijtimoiy samara	Eng yuqori (ijtimoiy muammoni hal etish — bosh mezon)	Ijtimoiy korxonalar kraudfandingi, mikromoliya tashkilotlari, grant-investitsiyalar

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiya vositalarining evolyutsion rivojlanishi to'g'ridan to'g'ri biznesning ijtimoiy mas'uliyati ortib borishi va moliya bozorining institutsional o'zgarishi bilan belgilanadi. Agar an'anaviy va mas'uliyatli investitsiyalarda bosh mezon sof foyda olish va moliyaviy xavflarni kamaytirishdan iborat bo'lsa, ESG hamda ta'sir investitsiyalari tizimida ijtimoiy muammolarni hal etish moliyaviy daromad ko'rish bilan teng darajadagi ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston moliya tizimi uchun aynan 4 va 5-guruhga mansub investitsiya dastaklarini rivojlantirish, xususan, ijtimoiy obligatsiyalar (Social Bonds) emissiyasini kengaytirish va tijorat banklarining loyihalarni kreditlash siyosatiga ijtimoiy xavf-xatarlarni baholash (ESRM) tizimlarini integratsiya qilish ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning bosh omili hisoblanadi.

Milliy amaliyotda ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish va rag'batlantirishda davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar hamda qaytarilmaydigan maqsadli mablag'lar (grantlar) tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda aholini bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlagan yoki ularni kasb-hunarga o'qitayotgan ijtimoiy korxonalariga ishlab chiqarish uskunalari, mehnat muhofazasini tashkil etish va xodimlar ish haqini qisman qoplash uchun qaytarilmaydigan moliyaviy subsidiyalar ajratilishi yo'lga qo'yilgan.

Davlat idoralaridan tashqari, respublikada ijtimoiy tadbirkorlik infratuzilmasini va subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi maxsus institutsional fondlar va tashkilotlar tarmog'i shakllanmoqda. Misol uchun, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan ijtimoiy tadbirkorlar uchun bepul akseleratsiya dasturlari, biznes-treninglar, tajribali tadbirkorlar bilan mentorlik (maslahatlashuv) uchrashuvlari va moliyaviy imtiyozlarni rasmiylashtirishda amaliy yordam ko'rsatilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi (TRK) va tijorat banklari hamkorligida ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar uchun imtiyozli shartlarda moliyaviy resurs va kreditlar ajratish mexanizmi joriy etilgan. Bunda xalqaro amaliyotdagi "sheriklik va mas'uliyatni bo'lishish" tamoyiliga asosan, tadbirkor loyihaning umumiy qiymatidan kamida 20 foiz miqdoridagi shaxsiy mablag'lari (kapitali) bilan ishtirok etishi talab etiladi, qolgan qismi esa davlat kafilligi yoki banklarning imtiyozli kredit liniyalari hisobidan moliyalashtiriladi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda davlat subsidiyalari va tadbirkorning shaxsiy kapitali (kamida 20%) o'rtasidagi bunday oqilona nisbat korxonaning bozor konyunkturasidagi moliyaviy barqarorligini va investitsiyalarning maqsadli sarflanishi ustidan ichki nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tadbirkorlik instituti rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotiga nisbatan shakllanish va institutsional rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, mahalliy biznes vakillari allaqachon ushbu turdagi faoliyatning to'laqonli subyektlariga aylanish uchun faol iqtisodiy harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

12 Илмий адабиётларни ўрганиш асосида муаллиф ишланмаси.



Biroq milliy iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy-metodologik asosini tashkil etuvchi beshta fundamental jihatni (mezonni) alohida ajratib ko'rsatish lozim:

Ijtimoiy tadbirkorlik subyekting bosh strategik maqsadi faqatgina an'anaviy tijorat firmalari kabi sof foydani maksimalashtirishdan iborat bo'lmay, balki jamiyatdagi muayyan dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammoni tizimli hal etish yoki uning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratiladi. Bunda foyda olish maqsad emas, balki ijtimoiy g'oyani barqaror ta'minlashning moliyaviy dastagi bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy tadbirkor uchun yakuniy natija jamiyatdagi muayyan muammoni shunchaki mavhum tarzda yumshatishda emas, balki aniq statistik va moliyaviy raqamlarda aks etadi. Bu mahsulot va xizmatlarning bozorda ommalashishi, korxonalar rentabelligining barqarorligi, yaratilgan "yashil" va inklyuziv ish o'rinlari soni hamda kambag'allik darajasining pasayishi kabi o'lchanadigan miqdoriy ko'rsatkichlar (KPI) tizimi orqali ifodalanadi.

Belgilangan ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy tadbirkorlik subyekti an'anaviy moliyalashtirish modellaridan farqli o'laroq, innovatsion vositalarni (masalan, kraudfanding, kraudinvesting, venchur kapitali va ijtimoiy impakt-investitsiyalarni) faol jalb etadi. Bunda korxonaning ijtimoiy va ekologik loyihalari tashqi investorlar uchun ham moliyaviy, ham ijtimoiy jihatdan jozibador aktiv sifatida shakllantiriladi va kapitalni jalb qilishning muqobil mexanizmlaridan foydalaniladi.

Tashqi donorlik mablag'lari, grantlar va davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar vaqt va hajm jihatidan cheklangan bo'lganligi sababli ijtimoiy korxonaning uzoq muddatli strategik maqsadi to'liq o'zini o'zi moliyalashtirish va tijorat barqarorligiga erishishdan iboratdir. Ijtimoiy korxonalar xayriya tashkiloti emas, balki o'z mahsulot va xizmatlarini bozor tamoyillari asosida sotish orqali operatsion xarajatlarini qoplash va sof foyda (rentabellik) olish xususiyatiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

Masshtablash (multiplikatsiya qilish) va kengayish salohiyati. Loyihaning muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat moliyaviy kapitalni, balki barcha manfaatdor tomonlarni (tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, korporativ sektor va nodavlat tashkilotlarni) yagona ijtimoiy-iqtisodiy ekotizimga jalb qilishni ko'zda tutadi. Bu kelajakda korxonalar faoliyatini kengaytirish (masshtablash), umumiy kapitallashuv darajasini oshirish va olingan foydani reinvestitsiya qilish orqali jamiyatdagi yanada keng qamrovli va tizimli muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy-uslubiy tahlillar hamda milliy va xorijiy amaliyotni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik — an'anaviy tijorat (xususiy) va notijorat (ijtimoiy) sektorlarining o'ziga xos transformatsiyalashgan moliyaviy-iqtisodiy asosi bo'lib, u bozor konyunkturasi sharoitida jamiyat uchun strategik ahamiyatga molik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan institutsional tuzilmadir. Milliy bozor sharoitida ijtimoiy mikromoliyalashtirish, inklyuziv sport va ta'lim maskanlari, hamyonbop repetitorlik klublari, "ijtimoiy do'konlar" va ixtisoslashtirilgan transport xizmatlari kabi ijtimoiy biznes modellari nafaqat aholining ehtiyojmand qatlamlari («Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari») muammolarini yumshatadi, balki ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini ham beradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining tabiati kapital va investitsiyalarning an'anaviy tijorat shaklidan ijtimoiy yo'naltirilgan shakliga o'tish evolyutsiyasini ifodalaydi. Tadqiqot davomida tizimlashtirilgan 5 ta moliyalashtirish bosqichi (an'anaviy, mas'uliyatli, ijtimoiy mas'uliyatli, ESG va ta'sir investitsiyalari) shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bosqichda investorlar va korporativ sektor uchun faqatgina sof foyda (rentabellik) emas, balki aniq o'lchanadigan va maqsadli ijtimoiy-ekologik multiplikativ samaradorlik (Social Impact) bosh mezonga aylanmoqda. O'zbekiston moliya tizimida ushbu jarayonni institutsionallashtirish uchun suveren va korporativ "Ijtimoiy obligatsiyalar" (Social Bonds) emissiyasini kengaytirish hamda banklarning kreditlash siyosatiga ijtimoiy xavf-xatarlarni baholash (ESRM) tizimlarini majburiy integratsiya qilish zarur.

Uchinchidan, ijtimoiy korxonalarning ijtimoiy yuklamani o'z bo'yniga olishi va rentabellik darajasini ma'lum ma'noda pasaytirishi, ularni davlat tomonidan ko'p bo'g'inli (respublika, mintaqaviy va mahalliy budjetlar darajasida) qo'llab-quvvatlanishini taqozo etadi. Milliy amaliyotda infratuzilmaviy imtiyozlar, bo'sh turgan davlat mulklarini "nol" qiymatda yoki imtiyozli shartlarda berish, bepul axborot-marketing ko'magi va davlat xaridlari tizimida kvotalar (ustuvorlik) ajratish ijtimoiy tadbirkorlarning muqobil (alternativ) xarajatlarini qoplashda asosiy fiskal dastak bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ijtimoiy korxonalar xayriya tashkiloti emas, balki bozor tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi fiskal barqaror tizim bo'lishi lozim. Loyihalarni moliyalashtirishda davlat subsidiyalari yoki tashqi imtiyozli kreditlar bilan bir qatorda, tadbirkorning kamida 20 foiz miqdoridagi shaxsiy kapitali (ulushi) bilan ishtirok etish majburiyati — "moliyaviy leverij mexanizmi" sifatida kapitalning maqsadli sarflanishi ustidan ichki nazoratni

kuchaytiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining bugungi transformatsiyalashuv va kambag'allikni qisqartirish bosqichida ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish uchun sohaning huquqiy maqomini aniq belgilovchi qonunchilik bazasini shakllantirish hamda ularni moliyalashtirishning innovatsion-investitsion (impakt, kraudfanding va ESG) dastaklarini tizimli joriy etish talab etiladi. Bu esa jamiyatdagi o'tkir ijtimoiy buzilishlarni davlat budjetiga ortiqcha fiskal yuk tushirmasdan, samarali bozor mexanizmlari yordamida hal etishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – Toshkent, 2019-y., 12-songa ilova. – 480-b.
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami (QHT). – Toshkent, 2013-y., 52-songa ilova. – 124-b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – Toshkent, 2014-y., 9-son. – 239-modda, 312–318-b.
4. O'zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to'g'risida»gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2020-y., 43-son. – 438-modda, 512–526-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi. – 2023-y., 12-sentabr, № 192 (8535). – 1–3-b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: «Tasvir», 2022. – 416 b.
7. Vahobov A.V., Malikdinov A.S. Xalqaro moliyaviy munosabatlarda ESG tamoyillari va yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari. // «Moliya» jurnali, Toshkent, 2023. № 4. – 12–19-b.
8. Jiyanova N.E. Oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish integratsiyasini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2022. – 210 b.
9. Berdiyarov B.T. Sanoat klasterlari va mintaqaviy rivojlanish iqtisodiyoti. – Toshkent: «Fan va texnologiyalar», 2021. – 185 b.
10. Toshmurodova B.E. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishning innovatsion dastaklari. // Iqtisodiyot va ta'lim, Toshkent, 2024. – № 2. – 85–91-b.
11. Ollayorov S.R. Mahalliy budjetlarning fiskal barqarorligini ta'minlash yo'llari. // Budjet va g'aznachilik nazorati, 2023. – № 1. – 44–50-b.
12. Юнус М. Создавая мир без бедности: Социальный бизнес и будущее капитализма. / Мухаммад Юнус. – М.: Альпина Паблишер, 2010. – 307 с.
13. Borzaga C., Defourny J. The Emergence of Social Enterprise. // International Journal of Social Economics, Vol. 28, No. 7, 2021. – pp. 72–81.
14. Nicholls A. Social Entrepreneurship: New Models of Sustainable Social Change. – Oxford University Press, 2008. – 458 p.
15. Brest J., Born K. Money Well Spent: A Strategic Plan for Smart Philanthropy and Impact Investing. – Stanford University Press, 2018. (Ta'sir va impakt investitsiyalari bo'yicha).
16. Эл Кингтон К. ESG и устойчивое развитие монетарных систем: новые вызовы для финансовых рынков. // Финансы и кредит, 2023. – № 8. – С. 165–178.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Дониерова Фотимабону Алишер кизи

Ташкентский государственный экономический университет (PhD)

Аннотация. В статье исследуется концепция «HR Business Partner» (HRBP) как инструмента стратегического управления персоналом в условиях трансформации экономики Узбекистана. На основе модели Дэйва Ульриха и международного опыта (Казахстан, ОАЭ и Южная Корея) разработана компетентностная модель HRBP, адаптированная к условиям отечественного рынка труда. Выявлены ключевые барьеры внедрения HRBP и сформулированы практические рекомендации для государственных органов, образовательных учреждений и бизнес-сообщества. Показано, что переход к модели бизнес-партнёрства способствует повышению организационной эффективности, снижению текучести кадров и укреплению конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: «HR Business Partner», стратегическое управление персоналом, человеческий капитал, цифровизация HR, корпоративная культура, бизнес-интеграция, организационная эффективность, Узбекистан.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiya sharoitida HR Business Partner (HRBP) konsepsiyasi strategik kadrlar boshqaruvining samarali vositasi sifatida tadqiq etiladi. Deyv Ulrix modeliga asoslangan zamonaviy yondashuvlar hamda Qozog'iston, BAA va Janubiy Koreya tajribalari tahlil qilinadi. Mahalliy mehnat bozori sharoitlariga moslashtirilgan HRBP kompetensiyalar modeli ishlab chiqilgan. Empirik ma'lumotlar va milliy ilmiy tadqiqotlar asosida HRBP modelini joriy etishdagi asosiy to'siqlar aniqlanib, davlat organlari, ta'lim muassasalari va biznes hamjamiyati uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari HRBP modelini q'llash tashkilotlarning samaradorligini oshirish, kadrlar almashinuvini kamaytirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: HR Business Partner, strategik kadrlar boshqaruvi, inson kapitali, HR raqamlashtirish, korporativ madaniyat, biznes integratsiyasi, tashkiliy samaradorlik, O'zbekiston.

Abstract. The article examines the HR Business Partner (HRBP) concept as a strategic human resource management tool in Uzbekistan's transforming economy. Drawing on Dave Ulrich's model and international experience from Kazakhstan, the UAE, and South Korea, the study develops a competency framework for HRBP adapted to the local labor market. Based on empirical evidence and national research findings, key barriers to HRBP implementation are identified, and practical recommendations are proposed for government institutions, educational organizations, and the business community. The findings demonstrate that adopting the HRBP model contributes to higher organizational effectiveness, lower employee turnover, and stronger enterprise competitiveness.

Keywords: HR Business Partner, strategic human resource management, human capital, HR digitalization, corporate culture, business integration, organizational effectiveness, Uzbekistan.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях стремительного научно-технического прогресса и глобальной цифровой трансформации экономики управление человеческими ресурсами становится одним из ключевых факторов, определяющих конкурентоспособность организаций и устойчивость социально-экономического развития. Традиционная административно ориентированная модель кадровой службы, сформировавшаяся в условиях индустриальной экономики, постепенно утрачивает свою эффективность, уступая место стратегически интегрированным подходам к управлению персоналом. Центральным элементом таких подходов выступает модель «HR Business Partner» (HRBP), которая за последние два десятилетия стала одним из общепризнанных стандартов организации HR-функции в ведущих международных компаниях.

Современный рынок труда предъявляет принципиально новые требования к кадровой политике организаций. По данным World Economic Forum, к 2025 году более 85 миллионов рабочих мест в мире будут трансформированы под воздействием автоматизации и искусственного интеллекта, тогда как спрос на специалистов по управлению изменениями, аналитиков данных и стратегических HR-партнёров



+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100